

SARDOBA SUV OMBORI VA ULARNING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATINI BAHOLASH

Qo‘shmatov Botirbek Berikboy o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

E-mail: botirbekqoshmatov@gmail.com

Annotatsiya : Mazkur maqolada Sardoba suv omborining xalq xo‘jaligidagi ahamiyatini baholash, suv omboridan maqsadli majmualari foydalanish, sel toshqinlarini bartaraf etish, daryolar suv rejimini tartibga solish va to‘g‘onlar yordamida suvni yig‘ish va saqlash, suv omborlaridan kompleks va ulardan istiqbolli foydalanish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: geosinklinallik, ekspluatatsiya, evakuatsiya, gidrotexnik inshoot, suv omborlari, kanallar, dambalar, suv tanqisligi.

KIRISH

Darhaqiqat, suv omborlari xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini suvga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlashdagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Har qanday sharoitda suv omborlari barpo qilishning asosiy maqsadi- daryolar suv rejimini tartibga solish va aholining maishiy - kommunal, xo‘jalik ehtiyojlarini uzluksiz suv bilan ta‘minlashdan iboratdir. So‘nggi paytlarda sug‘oriladigan maydonlarni kengayishi, qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish, ekstensiv qishloq xo‘jaligining yuksalishi, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yangi yerlarning o‘zlashtirilishi, suvdan energetika va boshqa maqsadlarida foydalanish hamda suv oqimlarini rostlashda suv omborlarining ahamiyati ortib bormoqda.

Hozirda respublikamizda 300 ga yaqin yirik gidrotexnik inshootlar, shu jumladan 54 suv ombor, 20 mlrd m² sig‘imga ega bo‘lgan 60 dam ortiq suv omborlari va sel omborlaridan samarali foydalanib kelinmoqda. Respublikamizdagi mavjud gidrotexnik inshootlar ekspluatatsiyasi, suv omborlaridan unumli va xavfsiz foydalanish, ularning qurilishida hududning yer yuzasi tuzilishi, tuproq qatlami va geosinklinallik xususiyatlariga alohida e‘tibor berilishi va o.z vaqtida ta‘mirlash-tiklash texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, suv omborlarini loyqa bosishi va turli xil ifloslanishlardan saqlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ba‘zan suv omborlarini loyqa bosishi va loyqalar bilan to‘lishi natijasida suv omborlari yaroqsiz, butunlay ishdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Suv omborlarida zaxira sifatida to‘plangan suvlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish zarur. Hozirda suv omborlarida jamg‘arilgan suvlardan xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida keng foydalaniladi. Suv omborlari daryo suvini tartibga solish, sug‘orish,

baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish, rekreatsiya xizmatini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani muhokama qilish mobaynida ilmiy bilishning tarixiylik, komplekslik, mantiqiylik, obyektivlik kabi metodlaridan keng foydalanilgan. Sardoba suv ombori va ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini baholash, suv omborlaridan maqsadli majmualari foydalanish, sel toshqinlarini bartaraf etish, daryolar suv rejimini tartibga solish va to'g'onlar yordamida suvni yig'ish va saqlash, suv omborlaridan kompleks va ulardan istiqbolli foydalanish masalalari yoritilgan. Abulqosimova Iroda Po'lat qizining "Sardoba suv omborining atrof-muhitga ta'sirini prognozlash" nomli magistrlik dissertatsiyasi metodologik manba nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

TADQIQOT NATIJALARI

O'zbekistonda ham XX asrning ikkinchi yarmida ko'plab, turli kattalikdagi suv omborlari qurilib, ular asosan daryo suvlarining suv rejimini boshqarish va energiya olish manbai hisoblanadi. Ularning qurilishi va faoliyati, bugungi kunda ham aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash, suvlardan qishloq xo'jaligi va energetikada foydalanish maqsadlarida bo'lib, yangi suv omborlari loyihalashtirilishi va qurilishiga olib kelmoqda.

Tabiiy landshaftlarning shakllanishi, o'zgarishi va yangi tiplarining paydo bo'lishida antropogen suv inshootlari muhim omil bo'lib xizmat kiladi. Suv omborlari esa lokal va mintaqaviy miqyosda, tabiiy landshaftlarning o'zgarishida eng katta ta'sir etuvchi suv inshootlaridan hisoblanadi va ularning tabiiy muhitga bo'lgan ta'sirini o'rganish tabiiy geografiya, xususan, landshaftshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Yirik suv inshootlari (suv omborlari, kanallar, dambalar va boshqalar) qadimdan Yer sharida qurib kelingan, ularning landshaft ekologik sharoitlarga ta'siri turlicha bo'lib, turli mintaqa va davlatlar iqtisodiy ijtimoiy sharoitlarining rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan. Gidrotexnika inshootlari geografiyasini, makon va zamonda tarqalishi, ular faoliyati bilan bog'liq barcha jarayon va hodisalarni o'rganish, ularning geografik muhit bilan xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish hamda baholash, amaliy va ilmiy ahamiyatini belgilash muhim masala hisoblanadi [1; 235 b].

Mamalaktimizda suv omborlari barpo etishning asosiy maqsadi ham to'g'onlar, selxonalar barpo etish orqali daryolar suv rejimini tartibga solish va barpo etilgan suv omborlaridan kaskadli GESlar tashkil etilib, gidroenergiya maqsadida istiqbolli foydalanish mo'ljallangan. Hozirgi kunda mamalaktimizda 55 tadan ortiq suv omborlari mavjud bo'lib, ularning umumiy hajmi 19.2 km³, foydali hajmi 15.3 km³ ni tashkil qiladi. Ularning 20 tasi yirik suv omborlari hisoblanib, umumiy hajmi 17.8 km³, foydali hajmi 14.1 km³ ni tashkil etadi. Suv omborlarining xo'jalikdagi ahamiyati

beqiyosdir. Chunki xo‘jalikning biror bir tarmog‘i yo‘qki, suvdan foydalanmasin. Suv omborlari barpo etish suv resurslaridan oqilona va unumli foydalanish imkonini beradi. Suv omborlarida to‘plangan suv yerlarni sug‘orish aholi punktlari va sanoat korxonalarini suv bilan ta‘minlashda, daryo, kanallarni tozalashda, yilning qurg‘oqchil davrida suv tanqisligi muommolarini bartaraf etishda keng foydalaniladi. Suv omborlaridan baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirish, suv transporti, dam olish, suv sporti maqsadlarida ham keng foydalanish mumkin. So‘nggi yillarda mamlakatimizda daryolar suv rejimini tartibga solish bilan birgalikda suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida ko‘plab suv omborlari tashkil etilgan.[3]

Mirzacho‘l okrugining irrigatsiya tarmoqlaridan biri bo‘lgan Sardoba suv ombori shu nom bilan ataluvchi botig‘ning o‘rnida, Janubiy Mirzacho‘l kanalining markaziy tarmog‘ida joylashgan. Yirik gidrotexnik inshootning morfometrik o‘lchamlarini ko‘radigan bo‘lsak, maydoni 58,7 km², suv sig‘imi 922 mln m³, maksimal chuqurligi 35 m, uzunligi 33 km, balandligi 33 m ni tashkil etadi. Sardoba suv ombori Sirdaryo viloyatining Oqoltin va Mirzaobod tumanlari, Jizzax viloyatining Arnasoy, Mirzacho‘l va Do‘stlik tumanlaridagi 146,2 ming gektar yerlarni sug‘orish ko‘zda tutilgan.[3] Suv ombori to‘g‘oni maksimal balandligi 33 metr bo‘lgan tizma uzunligi 33,6 km ga teng. Bunday ulkan loyihalarni amalga oshirayotgan Sardoba suv omborida, kutilmaganda 2020 yilning 1 may kuni ertalab to‘g‘on o‘pirilishi sodir bo‘ldi. Sardoba suv omborida katta miqdorda suvning oqib chiqishi hisobiga Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlaridagi aholi punktlari va ekinlari zarar ko‘rdi. Bu tumanlardagi bir qancha binolar, yo‘llar, kommunikatsiyalar vayron bo‘ldi. Umumiy qilib olganda, Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlaridagi 22 ta qishloqdan 60 mingdan ortiq aholi evakuatsiya qilindi.

Bundan o‘n yil muqaddam, ya‘ni 2010-yilda Janubiy Mirzacho‘l kanalining markaziy tarmog‘i oqib o‘tgan hududda yirik bir suv ombori qurilishi boshlangan edi. Ushbu suv ombor Sardoba suv ombori bo‘lib, respublikamiz tekislik hududlaridagi yirik suv omborlardan biri hisoblanadi. Sardoba suv omborida qurilish ishlari 2018-yili yakunlandi. Suv ombor Sardoba, Xovos va Mirzaobod tumanlari hududida joylashgan bo‘lib, Sirdaryo hamda Jizzax viloyatlari hududini suv bilan ta‘minlaydi. Suv omboridan xalq xo‘jaligida foydalanish esa g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Suv omborning katta qismi Sardoba tumani hududida joylashgan bo‘lib, Sardoba hududida suv omborining joylashgan nuqtasi Qo‘rg‘ontepa MFY hisoblanadi.[2; 41-42 b].

Respublikamiz hududida 50 dan ortiq suv omborlar mavjud bo‘lib, har bir suv ombori qurishdan ma‘lum bir maqsad ko‘zlangandir. Suv omborining qanday maqsadlar uchun bunyod etilayotganligi avvalo shu hududning ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bugungi kunga kelib suv omborlari faqatgina bir maqsad uchun emas, balki ko‘plab maqsadlar asosida bunyod etilmoqda. Lekin respublikamiz sharoitida suv omborlari asosan qishloq xo‘jaligini suv bilan ta‘minlash va yangi

yerlarni o'zlashtirish maqsadida bunyod etiladi. Aynan Sardoba suv ombori suvi bilan Sirdaryo viloyatining Oqoltin va Mirzaobod tumanlari, Jizzax viloyatining Arnasoy, Mirzacho'l va Do'stlik tumanlaridagi 146,2 ming gektar yerlarni sug'orish ko'zda tutilgan. Ya'ni, Jizzax va Sirdaryo yerlarini suv bilan ta'minlanishini yaxshilash maqsadida Sirdaryo daryosining qish va bahorgi suvlaridan tartibga solib foydalaniladi. [2; 41-42 b]

MUHOKAMA

Ammo, 2020 - yil 1- may kuni Sardoba suv omborida sodir bo'lgan suv toshqini oqibatida ko'plab tumanlarni (Sardoba, Oqoltin, Mirzaobod tumanlari) va Qozog'iston Respublikasining Paxtaorol tumanidagi yuzlab aholi turar joy binolari suv bosishiga sabab bo'ldi. Kelajakda bunday ko'ngilsiz vaziyatlarni bartaraf etish uchun suv omborlarining barpo etilishida hududning yer yuzasi tuzilishi, tuproq qatlami va geosinklinallik xususiyatlariga qat'iy e'tiborga olinishni taqozo etadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda mavjud suv omborlaridan maqsadli, istiqbolli foydalanish yo'llarini takomillashtirish va bu sohani rivojlashtirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Suv omborlarining qurilishida ularni texnik jihatdan mukammal holatda bunyod qilish, daryolar suv rejimini tartibga solish, gidroenergetika, baliqchilik va rekreatsiya maqsadlarida samarali foydalanishni tashkil qilish bilan birga xalq xo'jaligining ehtiyojlarida suv resurslaridan unumli va tejab-tergab, oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor berilishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаев, И. Х., Каримов, И. Э., & Ёкубжонова, Г. Х. ВЛИЯНИЕ ВОДОХРАНИЛИЩ НА ПРИРОДНУЮ СРЕДУ.
2. Abulqosimova I.P. Sardoba suv omborining atrof-muhitga ta'sirini prognozlash. – T: Magistrlik dissertatsiyasi, 2020. 41-42 b.
3. Olimqulov Y., Samadov J., Xo'shboqova M. O'zbekiston suv omborlari va ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati. -Termiz.: SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 6 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337.227-b.
4. Ubaydullayev M. Mirzacho'l okrugining geoekologik muommolari (Sardoba suv ombori misolida). JOURNAL OF GEOGRAPHY AND NATURAL RESOURCES. journal homepage: <https://topjournals.uz/index.php/jgnr>.